

O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA ARAB VA FORS TILLARINING  
DAVLAT TILI MAQOMIGA KO'TARILISHI

**Alisher Muzaffar o'g'li Egamberdiyev**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Arab xalifaligi tomonidan istilo etilgan Turon hududida xalifalikning davlat tili hisoblangan arab tilidan davlat tili sifatida foydalanilishi, xalifalik til siyosatining mahalliy tillarga ta'siri yoritilgan. Arab tilining islom mamlakatlarida birinchi xalqaro ilmiy til darajasiga ko'tarilgani, uning xalifalik hududida yagona ta'lim tili sifatida rivojlanish omillari tahlil qilingan. Somoniylar davriga kelib arab tili mavqeyining pasayishi va fors tilining davlat tili maqomiga ko'tarilishi sabablari yoritilgan. Forsiy tilning ilm-fan tiliga aylanishidagi muammolar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** arab tili, islom dini, davlat tili, Arab xalifaligi, til siyosati, xorazm tili, xalqaro til, ta'lim tili, somoniylar, fors tili.

Arab tili paydo bo'lgan vaqtda (VII asrdan oldin) undan faqat Arabiston yarimorolining janubida yashovchi qabilalargina foydalangan bo'lsa [1], bir necha asrlar davomida u islom dini tarqalgan barcha mamlakatlarda davlat tili va ilm-fan tili vazifasini bajara boshladi. Arab xalifaligi boshqaruvi davrida xalifalikning davlat tili bo'lgan arab tili Turon xalqlari uchun ham davlat tiliga aylandi. Xalifalikda umaviylar sulolasining o'ninchi hukmdori Hishom (xalifalik muddati: 724 – 743) davrida devon ishlari to'liq arab tiliga o'tkazilgan edi [2].

VIII asrga kelib arablar tomonidan Movarounnahr deb atalgan hududlarning egallanishi Turonda mavjud qadimgi yozuvlarning asta-sekin yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi. Arablar istilosiga qadar Xorazmda rasmiy hujjatlar ham, asarlar ham mahalliy tilda yozilgan. V.V.Bartold VIII asrdagi Xorazmni nazarda tutib, arablar bu yerda atrofdagi viloyatlar aholisidan kiyim-kechagi bilan ajralib turuvchi hamda boshqalarga tushunarli bo'lmagan va yozma hujjatlarda ham ishlatiladigan alohida tilda so'zlashuvchi o'ziga xos aholiga duch kelganlari haqida yozgan edi [3]. Xorazm istilo qilingach, xorazm tilida yozilgan barcha kitoblarni to'plash va o'tda kuydirishga buyruq berildi [4]. Bu holat Turonning istiloga uchragan boshqa yirik madaniy o'choqlarida ham sodir bo'ldi.

Islom mamlakatlarida arab tili birinchi xalqaro ilmiy til bo'lib xizmat qildi. Mazkur til bir necha asrlar davomida aslida arab bo'lmagan xalqlar uchun nasrda ham, nazmda ham asosiy til vazifasini bajardi [5]. O'zga tilli xalqlar uchun arab tili va yozuvini o'rganish mashaqqatli ish edi. Buning sababi xususida fikr yuritgan Beruniy arab yozuvining katta kamchiligi unda shaklan bir-biriga o'xshash harflarning mavjudligida ekanini qayd etgandi [6]. Shunday bo'lsa-da, bu tilni o'rganishga ehtiyoj kuchli bo'ldi. Islomni qabul qilgan aholi ibodat vaqtida Qur'on suralarini tilovat qilishda ushbu tildan foydalanadi. Mahalliy zodagonlar esa arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish hamda o'z siyosiy mavqelarini tiklash vositasi deb bildi. Natijada ko'p vaqt o'tmay arab tili va yozuvini o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ladi. Beruniy zamon talabiga qarab o'z asarlarini ona tilida yoza olmaganidan afsuslanganini qayd etgan [7].

Arab tili, shuningdek, ta'lim tiliga ham aylanib, Turondagi barcha madrasalarda turli yo'nalishlarda mukammal o'rgatildi. Shuni alohida qayd etish kerakki, mazkur til grammatikasi o'zigacha yaratilgan grammatikalardan izchilligi, tizimliliigi va ilmiyligi bilan ajralib turadi [8]. Bunda Xorazmdan Arabistonga borib arab tilining mukammal grammatikasini ishlab chiqqan alloma, tarixdagi birinchi ko'p tilli lug'at muallifi Mahmud Zamaxshariyning xizmatlari beqiyos. Ammo XIII – XIV asrlarga kelib mo'g'ullar bosqini va hukmronligi bilan bog'liq keskinlik sabab arab tili o'z xalqaro mavqeyini yo'qota boshladi [9].

Milodiy VIII – IX asrlarda forslarning arablar tazyiqi natijasida Xurosonga ko'chib kelishlaridan so'ng Turonda g'arbiy eron til guruhiga mansub fors tili keng tarqaldi [10]. Ayni paytda bu davrda so'g'd tili o'rnini forsiy va turkiy tillar egalladi. Fors tili sharqiy eroniy tillar guruhiga kiruvchi so'g'd, baqtriya, xorazm tillaridan keskin farq qilgan. Shu tariqa o'rta asr adabiy tillari arab va fors tillarining kuchli ta'siri ostida rivojlandi. Somoniylar sulolasi hukm surgan davrdan boshlab arab tili sekin-asta o'z hukmronligini yo'qotib, uning o'rnini adabiy til sifatida shakllanib bo'lgan fors tili egallay boshladi. Ismoil Somoniy davrida fors tili davlat tili bo'ldi [11]. Biroq Ismoil Somoniyning o'g'li Ahmad Somoniy (hukmronlik yillari: 907 – 914) otasi vafotidan so'ng taxtga o'tirgach, davlatni idora etishda arab tilini qayta tikladi [12]. Bu esa mahalliy zodagonlar va turk g'ulomlari noroziligini uyg'otdi. Natijada u 914-yilda turk g'ulomlari tomonidan o'ldirildi.

Somoniylar davrida amaldorlarni davlat xizmatiga fabul qilishning ma'lum bir talablari amalda bo'ldi. Nafaqat markaziy boshqaruv organlari, balki mahalliy boshqaruv idoralari lavozimlariga xizmatga kirish uchun ham muayyan bilimlar talab etilar edi. O'qimishli hamda turli fanlardan xabardor bo'lgan da'vogarlar fors va arab tillarini egallagan bo'lishlari, Qur'oni karimni va shariat ahkomlarini bilishlari lozim edi [13]. Yuqoridagi talablarga mos bo'lgan bunday shaxslar tabaqasi Movarounnahrda arabcha "ahl al-qalam" va forscha "dabirlar" (kotiblar) deb atalardi [14]. Bunday talablar davlat tili mavqeyining mustahkamlanishiga, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilar edi.

Manbalarda qayd etilishicha, IX asrda Samarqand So'g'dida yashab ijod etgan musiqashunos va shoir Abu Hafs So'g'diy arab aruz vaznida birinchi bo'lib fors tilida she'r bitdi [15]. Shuni alohida qayd etish joizki, X asrda somoniylar sulolasi vakillari hukmronlik qilgan yerlarda fors tili bilar bir qatorda arab tili ham kuchli ta'sirga ega edi. Shu sababli o'zlari arab bo'lmagan mahalliy olimlar, shoirlar o'z asarlarini arab tilida yozganlar [16]. Bu davrda Buxoroda forsiy tilda ijod etgan shoirlar bilan bir qatorda arab tilida ijod etgan ellikka yaqin arabiynavis shoirlar yashadi [17]. Lekin fors tili bu borada ilmiy adabiyot uchun hali mos kelmas edi [18]. Masalan, Beruniy o'zining XI asr o'rtalarida yozgan "Saydana" asarida fors tilini "faqat tundagi xusravona hikoyalar aytish uchun yaraydigan" va ilmiy asar yozish uchun yaramaydigan til deb ta'riflagan edi. Shu tariqa, asrlar davomida arab tili ilm tili bo'lgani singari fors tili adabiyot tili sifatida xizmat qildi. Mazkur tilda ko'plab badiiy va ayrim ilmiy kitoblar yaratildi. Ibn Sino, Abu Abdulloh Ro'dakiy, Abul Qosim Firdavsiy kabi bir qator olim va shoirlar o'z asarlarining bir qismini fors tilida yozdilar. XII – XIII asrlarda Umar Xayyom, Nasiriddin Tusiy va Qutbiddin Sheroziy kabi olimlar asarlarida fors tili ilmiy tilga aylanib, XIV – XV asrlarga kelib esa Turonda fors tili asosiy ilmiy til bo'lib qoldi.

Toshkentda olib borilgan qazish ishlarida topilgan IX – X asrlarga oid sopol idishlarning katta qismini umummusulmon dunyosiga xoslikning tasdig'i sifatida arab yozuvlari bitilgan sirli idishlar tashkil etadi. Bunday idishlarda aks etgan arabiy yozuvlarga qarab ushbu tilning ayrim shaharliklar xonadonida muomalada bo'lganini ko'rish mumkin [19]. Idishlarga tushirilgan kufiy yozuvlar yaxshi niyat yoki nasihatlar bitilgan so'zlardan, ayrim hikmatlar islom dini nufuzli arboblari so'zlaridan iborat bo'lgan. X – XII asr yozma manbalarida qayd etilishicha, chochliklar fors tilida juda yaxshi so'zlashganlar, choch tili esa "xaytal tillarining eng yaxshisi" hisoblangan. X – XI asrlardagi aholi tili shevalarini tadqiq etgan olim J.Lazarning ma'lumot berishicha, uch til – so'g'd, xorazm va Muqaddasiy tomonidan mustaqil til sifatida tavsiflangan choch tilidan tashqari tilga olingan barcha lahjalar muayyan umumiy tilning mahalliy shakllari bo'lgan [20].

Xulosa qilib aytganda, Arab xalifaligi boshqaruvi davrida xalifalikning davlat tili bo'lgan arab tili Turon xalqlari uchun ham davlat tiliga aylandi. Milodiy VIII – IX asrlarda forslarning arablar tazyiqi natijasida Xurosonga ko'chib kelishlaridan so'ng Turonda g'arbiy eron til guruhiga mansub fors tili keng tarqaldi. Somoniylar sulolasi hukm surgan davrdan boshlab arab tili sekin-asta o'z hukmronligini yo'qotib, uning o'rnini adabiy til sifatida shakllanib bo'lgan fors tili egallay boshladi. Ismoil Somoniy davrida fors tili davlat tili bo'ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. 109-б.
2. Вохидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. – Тошент: Akadernashr, 2013. 60-б.
3. Жабборов И. Буюк хоразмшоҳлар давлати: қадимий тарих саҳифалари. – Тошкент: Шарқ, 1999. 140-б.
4. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Памятники минувших веков. – Ташкент: Узбекистан, 1986. 4-б.
5. Аҳмедов А. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. – Тошент: O'zbekiston, 2011. 36-б.
6. Бекмуҳаммад У. Беруний: Катдан Ғазнагача // Бекмуҳаммад У. Хоразм ва хоразмликлар. Биринчи китоб. – Бухоро: Дурдона, 2022. 36–37-б.
7. Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси: тарихий этнографик лавҳалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. 126-б.
8. Рахимов А.У. Тилшунослик тарихида грамматикани тавсифлаш моделлари ва уларнинг методологик аҳамияти // ЎЗМУ хабарлари. 2011. 4/1-сон. 118-б.
9. Махсудов Д.Р. Мовароуннаҳр ханафий мазҳаби тафсириларининг қиёсий таҳлили (XIII – XV асрлар). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати – Тошкент, 2020. 11-б.
10. Сулаймонов Р. Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2004. 9-б.
11. Вохидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. – Тошент: Akadernashr, 2013. 105-б.
12. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи (илк даврлардан XIII аср бошларигача). – Тошкент: Marifat, 2009. 223-б.
13. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. 198-б.
14. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи (қадимги даврдан бугунги кунгача). Қайта ишланган иккинчи нашри. –Тошкент: ART FLEX, 2009. 37-б.
15. Абдуллаев И., Ҳикматуллаев Ҳ. Самарқандлик олимлар. – Тошкент: Фан, 1969. 9-б.
16. Абдуллаев И. Бухоронинг арабийнавис шоирлари. – Тошкент: Фан, 1965. 3–4-б.
17. Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 3-б.
18. Аҳмедов А. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. – Тошент: O'zbekiston, 2011. 36-б.
19. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи (қадимги даврдан бугунги кунгача). Қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент: ART FLEX, 2009. 40-б.
20. Буряков Ф.Ю. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. С. 164.